

15-dars. Misol va masalalar yechish



1. Har bir qadoqning tagida undagi konfetlar, yong'oqlar yoki pecheniylar soni yozilgan. Qaysi qadoqdagi mahsulotlarni ikki kishiga teng taqsimlash mumkin? Uch kishiga-chi? To'rt kishiga-chi? Besh kishiga-chi? To'qqiz kishiga-chi?



264 ta



315 ta



72 ta



96 ta



126 ta



2. Jadvallar asosida masalalar tuzing. Noma'lum kattaliklarni toping.

tezlik (v)	vaqt (t)	masofa (S)
18 km/h	? h	(126 + 162) km

narxi (a)	miqdori (n)	qiymati (C)
? so'm / ta	(14 + 57) ta	2 485 so'm

unumdorlik (v)	vaqt (t)	ish (A)
(13 + 18) ta / h	8 h	? ta



3. [12, 18, 20, 25, 45, 198, 270, 420, 300] natural sonlar to'plamidan quyidagilarni tanlang:

- a) 6 ga karrali sonlar; d) 5 ga karrali sonlar;
b) 900 sonining bo'luvchilari; e) 600 sonining bo'luvchilari.



4. Tenglamalarni yeching.

- a) $125 \cdot 4 \cdot x + 396 = 396$ b) $30 \cdot 40 - 60 \cdot 20 + x = 112$



5. Beshta yuk mashinasiga jami 11 310 kg pomidor yuklangan. Birinchi yuk mashinasiga 2 200 kg, ikkinchisiga birinchisidagidan 2 marta ko'p, qolgan uchta yuk mashinasiga esa teng miqdorda pomidor yuklangan. Beshinchi yuk mashinasiga necha kilogramm pomidor yuklangan?



6. Ifodalarning qiymatini **amallarning to'g'ri tartibiga rioya qilgan holda** hisoblang. Javoblarga mos harflarni shu tartibda joylashtiring va o'zbek xalq raqslari nomlarini aniqlang.

a) $(61 \cdot 390 - 4 \cdot (8\,762 - 2\,900)) \cdot (1\,296 : 4 - 184)$

A 140

V 324

N 23 448

R 47 880

A 23 790

L 12 730

O 342

T 5 862

b) $(8\,308 - 17 \cdot (8\,562 - 8\,327)) \cdot 9 + 54\,600 : 6$

A 3 995

K 36 558

N 47 917

R 4 313

Z 38 817

L 235

O 9 100

T 12 125



7. Masalalarga doir **ifodalar** tuzing.

a) "Andijon polkasi" raqsini **n** nafar katta raqqos ijro etdi. Ular bilan birga **m** nafar qiz va ulardan 2 marta kam o'g'il bola raqsga tushdi. Jami necha kishi raqsga tushgan?

b) Xalq raqslari haqidagi videorolikni dushanba kuni **t** nafar tomoshabin, seshanba kuni esa undan **k** nafar kam tomoshabin ko'rdi. Agar videorolikni 3 kunda jami 13 445 kishi ko'rgan bo'lsa, uni chorshanba kuni necha kishi ko'rgan?



8. **Teng yonli** uchburchakning perimetri 18 cm, tomonlaridan birining uzunligi 8 cm. Qolgan tomonlarining uzunliklarini toping.



9. Ifodalarning qiymatini hisoblang.

a) $7\text{ h } 45\text{ min } 18\text{ s} + 4\text{ h } 19\text{ min } 48\text{ s}$

d) $(2\text{ d } 15\text{ h} + 4\text{ d } 17\text{ h}) : 4$

b) $6\text{ h } 5\text{ min } 21\text{ s} - 4\text{ h } 37\text{ min } 52\text{ s}$

e) $(9\text{ d } 2\text{ h} - 5\text{ d } 4\text{ h}) \cdot 3$

10. Texnologiya darslari uchun har biri 55 000 so'mdan 10 qadoq karton va har biri 60 000 so'mdan 7 qadoq rangli qog'oz sotib olindi. Karton uchun rangli qog'ozga qaraganda necha so'm ko'p to'langan?

